

**KICHIK BOLDIR NERVI SHIKASTLANISHI ERTA
BOSQICHLARIDA JARROHLIK AMALIYOTINING AHAMIYATI**

Bolg'ayev Absodiq Bolg'ayevich

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Travmatologiya, neyroxirurgiya,
HDJ, tez tibbiy yordam va anesteziologiya kafedrasini mudiri, tibbiyot fanlari doktori,
dotsent

Rozzoqov Dilmurod Tog'aymurodovich

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali o'qituvchisi, oliy toifali
neyroxirurg

Eshpo'latov Jaloliddin Bahodir o'g'li

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Neyroxirurgiya yo'nalishi magistri

scofield9799@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0001-8158-6407>

**ВАЖНОСТЬ ХИРУРГИЧЕСКОГО ВМЕШАТЕЛЬСТВА НА РАННИХ
СТАДИЯХ ПОВРЕЖДЕНИЯ МАЛОБЕРЦОВОГО НЕРВА**

Болгаев Абсадик Болгаевич

Заведующий кафедрой травматологии, нейрохирургии, скорой медицинской
помощи и анестезиологии Термезский филиал Ташкентской медицинской
академии, доктор медицинских наук, доцент

Rozzoqov Dilmurod Togaymurodovich

Преподаватель Термезского филиала Ташкентской медицинской академии, врач-
нейрохирург высшей категории

Эшпулатов Джалолиддин Баходир угли

Магистр направления нейрохирургия, Термезский филиал Ташкентской
медицинской академии

scofield9799@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0001-8158-6407>

THE IMPORTANCE OF SURGICAL TREATMENT IN THE EARLY STAGES OF PERONEAL NERVE INJURY

Bolgayev Absodiq Bolgayevich

Head of the Department of Traumatology, Neurosurgery, Emergency Medical Care and Anesthesiology Termez branch of the Tashkent Medical Academy, Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

Rozzoqov Dilmurod Togaymurodovich

[Teacher of the Termiz branch of Tashkent Medical Academy,](#)

[Neurosurgeon of the highest category](#)

Eshpulatov Jaloliddin Bahodir ugli

Master's degree in Neurosurgery, Termez Branch of the Tashkent Medical Academy

scofield9799@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0001-8158-6407>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kichik boldir nervi shikastlanishining erta bosqichlarida jarrohlik amaliyotining ahamiyati o'rganilgan. Tadqiqot peroneal nervning anatomiyasi, shikastlanish sabablari, klinik belgilari, tashxislash usullari va erta jarrohlik aralashuvining funksional tiklanishdagi roli kabi jihatlarni qamrab oladi. Erta jarrohlik amaliyotining nerv funksiyasini tiklashdagi samaradorligi va asoratlarni oldini olishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, erta jarrohlik amaliyoti kichik boldir nervi shikastlanishida sezilarli darajada ijobiy natijalarga olib keladi.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается важность хирургического вмешательства на ранних стадиях повреждения малоберцового нерва. Исследование охватывает такие аспекты, как анатомия малоберцового нерва, причины повреждения, клинические симптомы, методы диагностики и роль раннего хирургического вмешательства в функциональном восстановлении. Проанализирована эффективность ранней хирургии для восстановления функции нервов и профилактики осложнений. Результаты показывают, что раннее хирургическое вмешательство приводит к значительно положительным результатам при травмах малоберцового нерва.

ABSTRACT

This article examines the importance of surgical treatment in the early stages of peroneal nerve injury. The study covers aspects such as the anatomy of the peroneal nerve, the causes of injury, clinical signs, diagnostic methods, and the role of early surgical intervention in functional recovery. The effectiveness of early surgical way in restoring nerve function and its importance in preventing complications are analyzed. The results show that early surgery leads to significantly positive outcomes in peroneal nerve injury.

Kalit soʻzlar: Kichik boldir nervi, jarrohlik amaliyoti, nerv shikastlanishi, erta bosqich, funksional tiklanish davri.

Ключевые слова: Малоберцовый нерв, хирургия, повреждение нерва, ранняя стадия, период функционального восстановления.

Keywords: Peroneal nerve, surgery, nerve injury, early stage, functional recovery period.

Kirish

Kichik boldir nervi – peroneal nerv shikastlanishi asosan jarohat, siqilish, bosilish yoki lat yeyish natijasida yuzaga keladi. Bu shikastlanish asosan oyoq panjasining koʻtarilishi va dorsifleksiyasida sezilarli zaiflik yoki yoʻqotish va baʼzan hatto nogironlik holatlarini keltirib chiqaradi. Ushbu maqola kichik boldir nervning shikastlanishlarida jarrohlik amaliyotining ahamiyatini erta bosqichda aniqlashga qaratilgan.

Metodologiya

Ushbu maqola adabiyotlar tahlili orqali tayyorlandi. Asosan 2018–2024 yillarda eʼlon qilingan ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va klinik tadqiqotlar tahlil qilindi. Maqolalarda peroneal nervning shikastlanishlari, diagnostika usullari va jarrohlik aralashuvlari haqida maʼlumotlar toʻplandi.

Natijalar

Anatomik tuzilma: kichik boldir nervi, asosan, umumiy peroneal nerv va uning ikki asosiy shoxi — yuzaki va chuqur peroneal nervlardan iborat. Bu nervlar oyoq panjasining dorsifleksiyasi va eversiyasini taʼminlaydi. Jarohatlar, lat yeyishlar, kompressiya (masalan, qisilish, bosilish, ezilish) yoki notoʻgʻri holatda uzoq muddat yotish shikastlanish sabablaridan hisoblanadi. Klinik belgilari: Oyoq panjasining

dorsifleksiyasi va eversiyasining zaifligi yoki yo‘qligi, oyoq panjasining "osilib qolishi" (foot drop), yurishda "xo‘rozsimon" yurish usuli, boldir va oyoq panjasining tashqi yuzasida sezgi yo‘qolishi. Diagnostika: Klinik va nevrologik ko‘rik, elektromiografiya (EMG), elektroneyromiografiya (ENMG), nerv ultratovush tekshiruvi va magnit-rezonans tomografiyasi (MRT). Jarrohlik amaliyotining afzalliklari: Erta bosqichda o‘tkazilgan jarrohlik aralashuvi (6 oygacha) nervning funksional tiklanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Asosan nervni dekompressiya qilish, nevrofiz va nevrofizyoterapiya yoki neyrofizyoterapiya hamda autonevroplastikalar qo‘llaniladi. Asoratlar: Davolashni kechiktirish jarohatni tiklash jarayonini murakkablashtiradi va nerv ustunini qayta tiklash imkoniyatini pasaytiradi va hatto nogironlikka olib keladi.

Munozara

Kichik boldir nervi shikastlanishlarining erta bosqichlarida o‘tkaziladigan jarrohlik amaliyotlari yuqori darajada ijobiy natijalar beradi. Adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, operatsiya qancha erta amalga oshirilsa, tiklanish imkoniyati shuncha yuqori bo‘ladi. Shu bilan birga, konservativ davolash usullari (fizioterapiya va medikamentoz davolash choralarini) ham qo‘llanilishi mumkin, lekin ular faqat yengil shikastlanishlarda samarali hisoblanadi. Og‘ir va qo‘pol jarohatlarda esa albatta jarrohlik aralashuvi talab etiladi.

Xulosa

Kichik boldir nervining shikastlanishi erta bosqichda aniqlanganda va jarrohlik aralashuvi o‘z vaqtida amalga oshirilganda, bemorlarda sezilarli darajada yaxshilanish kuzatiladi. Ushbu tadqiqot natijalari peroneal nerv shikastlanishlarining erta davolash usullarini takomillashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Kim, D.H., Murovic, J.A., Tiel, R.L., Kline, D.G. (2004). Surgical outcomes after repair of peroneal nerve lesions. *Journal of Neurosurgery*, 101(2), 277-289. doi:10.3171/jns.2004.101.2.0277
2. Noble, J., Munro, C.A., Prasad, V.S.S.V., Midha, R. (1998). Analysis of upper and lower extremity peripheral nerve injuries in a population of patients with multiple injuries. *Journal of Trauma*, 45(1), 116-122. doi:10.1097/00005373-199807000-00026
3. Kim, D.H., Kline, D.G. (1996). Management and results of peroneal nerve lesions. *Neurosurgery Clinics of North America*, 7(1), 145-156. PMID:8824125

4. Kline, D.G., Hudson, A.R. (1995). *Nerve Injuries: Operative Results for Major Nerve Injuries, Entrapments, and Tumors*. Philadelphia: W.B. Saunders.
5. Mackinnon, S.E., Dellon, A.L. (1988). *Surgery of the Peripheral Nerve*. New York: Thieme.
6. Sunderland, S. (1978). *Nerves and Nerve Injuries* (2nd ed.). Edinburgh: Churchill Livingstone.
7. Campbell, W.W. (2008). Evaluation and management of peripheral nerve injury. *Clinical Neurophysiology*, 119(9), 1951-1965. doi:10.1016/j.clinph.2008.04.019
8. Rorabeck, C.H., Macnab, I. (1980). The pathophysiology of the anterior tibial compartment syndrome. *Clinical Orthopaedics and Related Research*, (113), 52-57. PMID:7351402